



Comments on scientific-theoretical, practical directions of uzbek folklore

Ulugmurod AMONOV¹

Pedagogical Institute of Bukhara State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2021

Received in revised form

28 February 2022

Accepted 15 March 2022

Available online

25 April 2022

ABSTRACT

The scientific, theoretical and practical development of Uzbek folklore and folklore, which was formed as a science in the early twentieth century are examined in this article. The research work suggests that the development of Uzbek folklore in the early twentieth century developed in two stages: first in the practical, then in the scientific-theoretical stage, and then this scientific opinion is based on the following.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss2-pp18-23>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Keywords:

folklore,
folklore,
history of folklore,
source studies,
epic,
fairy tale,
parable,
proverb,
song,
folk theater.

O‘zbek folklorshunosligining ilmiy-nazariy, amaliy yo‘nalishlari haqida mulohazalar

ANNOTATSIYA

Kalit so‘zlar:

folklor,
folklorshunoslik,
folklor tarixi,
manbashunoslik,
matnshunoslik,
doston,
ertak,
masal,
maqol,
qo‘sishq,
xalq teatri.

Mazkur maqolada o‘tgan asr boshi – XX asr boshida fan sifatida shakllangan o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi hamda folklorshunosligining ilmiy-nazariy, amaliy taraqqiyoti o‘rganilgan. Ishda XX asr boshlari o‘zbek folklorshunosligining taraqqiyoti ikkita, ya’ni dastlab amaliy, keyin ilmiy-nazariy bosqichda kechgani haqida fikr bildirilgan.

¹ Associate Professor of the Pedagogical Institute of Bukhara State University, Ph.D. in Philology.

Размышления о научно-теоретических и практических направлениях узбекской фольклористики

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

фольклор,
фольклористика,
история фольклора,
источниковедение,
текстология,
эпос,
сказка,
притча,
пословица,
песня,
народный театр.

В данной статье изучено научно – теоретическое и практическое развитие узбекского устного поэтического творчества и фольклористики, ставшее наукой в конце прошлого-начале XX века. В работе подчеркивается, что развитие узбекской фольклористики начала XX века проходило в два этапа: сначала практический, а затем научно-теоретический.

O'zbek folklorshunosligining taraqqiyot bosqichlari orasida XX asr 20-30-yillari davri milliy folkloristikamiz tarixida eng og'ir va muhim bosqich hisoblanadi. Negaki bu bosqichda o'zbek folklorshunosligi davr qiyinchiliklariga, ijtimoiy tuzum murakkabliklariga qaramay, alohida tadqiqot sohasi, fan tarmog'i sifatida shakllanishga muvaffaq bo'lди. O'zbek ilmiy-madaniy hayotida folklorshunoslik fani paydo bo'lди. Bunda XX asr 20-30-yillari o'zbek folklorshunosligi mazkur **fan tarmog'ining ilk bosqichi** sifatida tarixda muhrlanib qoldi. Faqat u **o'zbek folklorshunosligining izlanish bosqichi** sifatida namoyon bo'lди. Undan keyingi bosqichlarda esa fanning ilmiy-amaliy yo'nalishlari yanada taraqqiy topib, kengayib borishiga zamin yaratildi.

XX asr boshlari o'zbek folklorshunosligining taraqqiyoti ikkita, ya'ni dastlab amaliy, keyin ilmiy-nazariy bosqichda kechdi. Amaliy bosqichda xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi bilgan, ijro eta olgan insonlarni aniqlab, ulardan bilganlarini yozib olish, yozuvga tushirilgan folklor asarlarini nashrga tayyorlash va chop etish ishlari amalga oshirilgan bo'lsa, ilmiy-nazariy bosqichda nashr qilingan xalq asarlarini jiddiy o'rganib, ularning janriy tabiatini, poetik xususiyatlari haqida nazariy xulosalar berish ishlari boshlab yuborildi.

XX asr boshlari o'zbek folklorshunosligi taraqqiyotining yetakchi tamoyillari uning asosiy nazariy yo'nalishlaridan kelib chiqqan. Ular quyidagilarda ko'rindi:

1. Xalq dostonchiligini kuzatib, xalq baxshilarining epik repertuarini aniqlash.
2. Xalq qo'shiqchiligi bilan bog'liq janrlar tizimi va tarkibini tadqiq etish.
3. Xalq ertakchiligi, uning taraqqiyoti, rivojlanish manbalari, mavzuiy turlarini tekshirish.
4. Xalq paremikasiga aloqador maqol, topishmoq singari janrlar bo'yicha izlanish.
5. Xalq teatrini o'rganish va hokazo.

1924-yilda Sobiq Sho'ro Ittifoqi tarkibiga kiritilgan O'zbekistonda boshqa sohalar qatori folkloristika va folklor ahvoli "tepa"dan nazoratga olina boshlandi. Buning natijasida, bir tomonidan, o'zbek folklorshunoslari mashhur sharqshunoslari, folklorist-akademiklardan S.F. Oldenburg, A.N. Samoylovich, professorlar Y.E. Bertels, S.E. Malov, S.P. Tolstov, Y.M. Sokolov, M.K. Azadovskiyalar bilan aloqa o'rnatishga muvaffaq bo'ldilar. Ular o'zbek folklorshunoslari amalga oshirayotgan ishlarga katta qiziqish bilan qaradilar. O'rni kelganda o'z ilmiy maslahatlarini bildirib, o'zbek folklorshunosligining nazariy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsata oldilar.

Umuman aytganda, XX asr 20-30-yillari o'zbek folklorshunosligining eng muhim tarixiy taraqqiyot bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda uning fan sifatida shakllangani, o'ziga xos qator ilmiy-nazariy va amaliy yo'nalishlarda taraqqiy topgani kuzatiladi. U o'zbek folklorshunoslik fanining izlanish bosqichi sifatida o'z belgilari ega.

XX asr boshlarida yashagan Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Sa'diy, Vadud Mahmud, G'ozi Olim Yunusov, Elbek, G'ulom Zafariy, Hasan Po'lat, Otajon Hoshim, Olim Sharafiddinov, Bekjon Rahmonov kabi ziyolilar o'zbek folklori tabiatni, janriy tizimi va tarkibi, badiiyatiga oid dastlabki ilmiy qarashlarni bildirib, xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plab nashr etishda va omma orasida targ'ib etish yo'lida samarali xizmatlar qilganlar. Shunisi bilan ular XX asrning 20-yillarida o'zbek folklorshunosligining fan sifatida shakllanishiga asos yaratganlar, deyish mumkin. Zero, ularning sa'y-harakati tufayli xalq ijodini nafaqat ilmiy asosda to'plash, nashr etish, balki ilmiy o'rganish yo'lga qo'yildi. Bevosita ularning tashabbusi hamda intilishi orqali yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan folklor durdonalarini asrab qolish ishlari olib borildi. Albatta, bu o'sha davrda hukmronlik qilayotgan tuzum tepasida turganlarga yoqmadi. Ayniqsa, mustabid sho'ro tuzumi milliy qadriyat va an'analarimizni oyoqosti qilayotgan, eskilik sarqiti deb qarayotgan bir davrda bu ulkan ma'naviy jasorat edi. Shuning uchun o'zbek folklorini o'rganish yo'lida jon kuydirgan Abdurauf Fitrat, G'ozi Olim Yunusov, Elbek, G'ulom Zafariy va boshqa ular kabi millat fidoyilari qatag'on qilindi. To istiqlol yillarigacha hozirgi avlod ularning nomini hatto eshitmay, bilmay keldi. Shuningdek, ularning folklorshunoslik borasidagi xizmatlaridan ham bexabar edi. Endi esa mustaqillik tuhfa etgan ijodiy erkinlik orqali ularning bu boradagi xizmatlarini xolislik bilan o'rganib, folklorshunoslikdagi nazariy va amaliy ahamiyatini, o'rnini yoritish imkoniyati mavjud. Hatto, bu zarur masalalardan sanaladi. Negaki mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek: "Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbanlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoni o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi" [1. 97].

1931-yilning oxirida yurtimizda Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish instituti tashkil etildi va uning tarkibidagi etnografiya, folklor va arxeologiya kabineti etnografiya sektoriga aylantirildi va unga H.T. Zarifov mudir etib tayinlandi (1931–1933). Bu sektor 1925–1930-yillarda to'plangan etnografiya materiallari qatorida folklor materiallarini ham Samarqanddan Toshkentga olib kelish ishlarini tashkil etdi.

Folklorshunos To'ra Mirzaev ta'kidlaganidek: "Sho'ro davriga xos bo'lgan turli-tuman evrilishlar, beqarorlik, vaqtı-vaqtı bilan bo'lib turgan qatag'onlar xalq ijodini to'plash va o'rganish ishlariga ham salbiy ta'sir etdi. O'tgan asrning 30-yillaridan boshlanib, 50-yillarning boshlarigacha davom etgan bu jarayon fan taraqqiyotini sekin-lashtirdi. Masalan, 1932-yilda Ohangaron va Chirchiq vodiylariga hamda Farg'ona vodiysiga folklor ekspedisiyalari uyuştirilar ekan, shu yillardan folklor to'plash ishlariga asossiz aralashuvlar, ekspeditsiyalar oldiga siyosiy talablar qo'yish boshlandi. Shu sababli Y.D. Polivanov, G.O. Yunusov, H.T. Zarifov, Q. Amazonov, Sh. Abdullayeva kabilar ishtirok etgan bu ekspeditsiyalarda asosiy e'tibor sun'iy ravishda sho'ro davri folklorini, ayniqsa, kolxozchilar ijodini to'plashga qaratildi, xalq ijodi bo'limgan to'qima namunalar, havaskorlarning folkloriga aloqasi bo'limgan soxta she'rlari yozib olindi. Natijada,

arxivlarda xalq orasida tarqalmagan, kimgardir tomonidan to'qilgan qo'shiqnamo namunalar to'planib qoldi, hatto asl nusxalari bo'lman, go'yo rus tiliga tarjima qilingan folklor "asarlari" paydo bo'ldi. Bunday "namunalar"ning muayyan qismi nashrlarga ham kirib qolganligini bugun afsus bilan qayd etish lozim".

XX asr boshlarida folklorshunos sifatida tanilgan, keyinchalik qatag'on qilingan olimlardan biri G'ulom Zafariy edi. U 1921–22-yillarda Farg'ona vodiysi folklorini, hududga xos og'zaki drama namunalarini, qo'g'irchoqboz va qiziqchilar haqidagi ma'lumotlarni to'plashga alohida e'tibor bilan yondashgan. To'plangan ana shu materiallar asosida "Chig'atoy-o'zbek xalq teatrusi" ("Bilim o'chog'i", 1923, 2-3-son) maqolasini e'lon qilib, uning dastlabki tavsifini o'quvchilar e'tiboriga havola qilgan.

Ko'rinyaptiki, o'tgan asr boshidagi folklorshunoslikka oid tadqiqotlar ko'proq maqolalar, folklor majmualari yoki metodik tavsija va qo'llanmalar ko'rinishida amalga oshirilgan. Bunga Bekjon Rahmonovning Xorazm vohasidan 564 ta maqol va matalni yig'ib, "O'zbekcha otalar so'zi" (1933) majmuasini chop ettirgani, adabiyotshunos Otajon Hoshimning "O'zbek folklori to'g'risida", o'sha davrda shoir sifatida tanilgan Hasan Po'latning "Folkorni kabinetdan topa olmaysan", Hodi Zarifovning "Og'zaki adabiyot haqida ba'zi mulohazalar", Miyonbuzruk Solihovning o'zbek xalq teatrining mohiyati, xarakteri, turlari haqidagi "O'zbek teatri tarixi uchun materiallar" hamda an'anaviy folklor namunalari, jumladan, "Alpomish"ning Berdi baxshidan yozib olingan varianti kiritilgan "Oktyabrgacha bo'lgan o'zbek og'zaki adabiyoti (folklor)" nomli ikki kitobini ham misol qilib ko'rsatish mumkin. Shunday bo'lsa-da, bularning bari o'zbek folklorshunosligi tarixida o'ziga xos o'ringa va qimmatga egadir.

XX asrning 30-yillari ikkinchi yarmida o'zbek folklorshunosligiga Mansur Afzalov, Sharifa Abdullayeva, Yusuf Sultonov kabi yangi tadqiqotchilar kirib kelishdi. Atoqli shoir va akademiklar G'afur G'ulom bilan Hamid Olimjon, shuningdek, shoir va olim Maqsud Shayxzoda, Shokir Sulaymon, Sharif Rizolar ham folklor muammolari, xususan, xalq dostonlarini nashrga tayyorlash va chop ettirish ishlari bilan shug'ullanib, **folklor-shunoslik fanining manbashunoslik (folklor tekstologiyasi) tarmogi** shakllanishi va rivojlanishiga ulush qo'shdilar. Xususan, XX asrning 30-yillari oxirlarida xalq dostonlarini o'rganishga nisbatan e'tibor yanada ortdi. Natijada Hodi Zarif, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Mansur Afzalov, Buyuk Karimov, Shokir Sulaymon, Zafar Diyor, Yusuf Sultonov, Umarjon Ismoilov kabi olim va shoirlar tomonidan so'zboshi bilan nashrga tayyorlangan 13 doston 1939–1942-yillarda birin-ketin bosilib chiqdi.

Folklorshunoslari sonining yildan yilga ortishi tufayli Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish institutining filologik tuzilmalari asosida Til va adabiyot ilmiy-tekshirish instituti tashkil etilishi bilan etnografiya sektori folklor seksiyasiga (keyinchalik sektorga) aylantirildi. Unga turli yillarda H.T. Zarifov (1934–1938), M. Afzalov (1938–1940), B. Karimov (1940–1941) kabi olimlar rahbarlik qildilar. Xuddi shu paytdan boshlab folklor materiallarini qaytadan hisobga olish va sistemalashtirish boshlandi. Natijada, hozirgi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til, adabiyot, folklor instituti huzuridagi Folklor arxiviga asos solindi (1934). O'shandan beri doimiy ravishda boyib borayotgan bu arxiv juda boy va bebahoxazinadir*.

1935 va 1937-yillarda H.T. Zarifov rahbarligida Farg'ona vodiysiga ikkita folklor ekspeditsiyasi uyushtirildi. Respublikaning turli tumanlariga xodimlarni ilmiy safarga

* Unga 1998-yilda sobiq Qo'lyozmalar institutining folklor fondi ham kelib qo'shildi. Bundan uning salmog'i va imkoniyatlari yanada kengaydi.

yuborish ishlari yo'lga qo'yildi. Bu yillarda fanga ilgari ma'lum bo'lмаган Islom shoir Nazar o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Bo'ri Sodiq o'g'li, Usmon Mamatqul o'g'li, Melash Ermatov, Hasan Xudoyberdiev, Husanboy Rasulov, Qozoqhoji kabi dostonchi va ertakchilar aniqlandi. Shuningdek, xalq ijodi namunalarни ilmiy o'rgannsh va nashr etishda muayyan yutuklarga erishildi. H. Zarifov, M. Afzalov, B. Karimov, H. Olimjon, M.Shayxzodalarning muhim ilmiy maqolalari e'lon qilindi. M.Solihov tuzgan "Oktyabrgacha bo'lgan o'zbek og'zaki adabiyoti" (1935), H.Zarifov va Sh.Rajabovlar tayyorlagan "O'zbek sovet folklori namunalari" (1935), B.Karimov tuzgan "O'zbek xalq ertaklari" (1939), M. Afzalov va Y. Sultonovlar tayyorlagan "O'zbek sovet folkloridan namunalar" (1938), Elbek tuzgan "Ashulalar" (1933, 1934, 1935) to'plamlari bosilib chiqdi. Ayniqsa, oliy o'quv yurtlari uchun Hodi Zarif tomonidan tayyorlangan ikki kitobdan iborat "O'zbek folklori" xrestomatiyasi (1939, 1941) xalq ijodi asarlarini davrlashtirish va sistemalashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Olim Sharafiddinov o'tgan asrning birinchi yarmida (1903–1943-yillarda) yashab ijod etgan ko'p qirrali adabiyotshunoslardan bo'lib, uning ham adabiyotshunoslik va folklorshunoslikka oid ilmiy-tanqidiy merosi o'ziga xos salmoqqa ega. Taniqli adabiyotshunos Homil Yoqubov ta'kidlaganidek: "Lekin zahmatkash, izlanuvchan va talabchan olim o'z faoliyatining eng ko'p qismini ulug' shoir va mutaffakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodini tekshirishga bag'ishladi" [2. 9.]. Bu borada u Navoiyning folklordan foydalanish mahoratiga alohida e'tibor qaratib, shoir asarlari mazmuniga, obrazlarining mag'ziga umuminsoniy g'oyalari chuqur singdirilishiga folklor o'ziga xos yo'l va vosita bo'lganligini e'tirof etadi.

Afsuski, qatag'on siyosati uzoq davom etdi. Uning sovuq shamoli yurtimizda folklorshunoslik fanining asoschisi sifatida tan olingan H.T. Zarifovni yanada chuqurroq domiga torta boshladi. Negaki u Fitrat, G'ozi Olim Yunusov, G'ulom Zafariy, Elbek singari folklorshunoslikda ancha tanilib qolgan olimlarning ishlarini sidqidildan davom ettirmoqda edi. Hatto u turkiy xalqlar og'zaki ijodi namunalarini yozib olish uchun XIX asrning 2-yarmida akademik V.V. Radlov yaratgan lotin yozuvi asosidagi transkripsiya asoslanib, 20-yillarning ikkinchi yarmida arab yozuvi asosidagi o'zbek folklori materiallarni yozib olishga mo'ljallangan shunday transkripsiyanı ishlab chiqqan edi [3. 51.].

Qatag'on siyosati nafaqat folklorshunoslik bilan shug'ullanayotgan olimlarni, balki xalqimizning beba ho qadriyatiga aylanib, og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tib kelayotgan mashhur asarlarni ham domiga tortdi. Masalan, o'tgan asrning 50-yillari boshlarida Folklor sektorining mudiri H.T. Zarifov kosmopolitizmda ayblangan bo'lsa, shu yillari "Alpomish" dostoni qatag'on etilib, uni kuylovchilar va o'rganuvchilar qattiq ta'qib qilina boshlandi. Natijad'a 1952-yilning aprelida Folklor sektori asossiz ravishda Mumtoz adabiyot sektoriga qo'shib yuborildi. Ammo Hodi Zarifov, Mansur Afzalov, Muzayyana Alaviya, Zubayda Husainova, Hojiya Shokirova, Zaytuna Karimovalardan iborat kichik bir guruhi xalq ijodini keragicha o'rganish va to'plash ishlarini davom ettiraverdilar [4. 5].

Xulosa qilib aytganda, qatag'on qilingan o'zbek ziylolarining aksariyati folklorshunoslik bilan ham shug'ullangan edi. Ularning bu boradagi faoliyati, ilmiy qarashlari o'zbek folklorshunosligining keyingi taraqqiyoti uchun eshik ochdi. Uning nazariy-metodologik asoslari yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Eng muhimi, ularning jonkuyarligi, fidoyiligi, milliy fan va madaniyatimiz, jumladan, o'zbek folklorshunosligi ravnaqi yo'lidiagi jonbozligi, ma'naviy jasorati, serqirra faoliyati yosh folklorshunoslar uchun hamisha ibrat maktabi bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 97.
2. Yoqubov H. Adabiyotshunosligimizning zabardast pioneri / O. Sharifiddinov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1978. – B. 9.
3. Мирзаев Т. Абдурауф Фитрат // Ходи Зариф сұхбатлари. Устозлар, ҳамкорлар ва сафдошлар. – Тошкент: "SHAMS – ASA" МЧЖ босмахонаси. – Б. 51.
4. Mirzayev T. Folklor bo'limi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2003. – 1-son. B. 5.
5. Amonov Ulugmurod Sultanovich Новые грани творческого наследия Элбека. "Til va adabiyot ta'limi" 2020.
6. Sh.R. Safarova Ulug'murod Sultanovich Amonov "Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish:strategiya, innovatsiya va ilg'or tajribalar" 2021/8.
7. У.С. Амонов Научный подход а. Фитрата к пословицам Современные тенденции развития науки и ..., 2016.
8. U.S. Amonov Folklore in the works of abdurauf Fitrat Theoretical & Applied Science, 2016.
9. Amonov Ulugmurod Sultanovich Scientific-Theoretical and Practical Directions of Uzbek Folklore of the Twentieth Century European Journal of Life Safety and Stability 2022/2/24.
10. Amonov U.S. O'qish darslarida maqol janridan foydalanish usullari va ahamiyati: DOI: 10.53885/edires. 2021.53. 34.124 US Amonov, BuxDU filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) MQ Salohiddinova, BuxDU boshlang'ich ta'lim 2-bosqich talabasi // Научно-практическая конференция. – 2022.
11. Amonov U. S., and Sh.R. Saparova. "The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.6 (2021): 403–407.
12. Amonov, Ulugmurod Sultanovich. "Folklore in the works of abdurauf Fitrat". Theoretical & Applied Science 10 (2016): 9–12.
13. Nigora, Adizova, and Adizova Nodira. "Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari". Conferences. 2021.
14. Bakhtiyorovna, Adizova Nigora, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "The role of the fun genre in children's spiritual development". Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 38–40.
15. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." Middle European Scientific Bulletin 10 (2021).
16. O.R. Avezov. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. Pedagogik mahorat 3 (No. 13), 145-150.
17. Safarov F.S. et al. The effect of a tissue biostimulator on embryonic and post-embryonic development of lambs // Uchen. Zap.-azerb. Sel'.-khoz-Inst. Ser. zhivot. – 1970. – №. 2. – С. 38–41.
18. Hayitov H. A. Qushlarga ibrat-hazrati xizr! // Иттернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72–73.
19. Saidova M.J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
20. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils 'knowledge based on the qualitological approach. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>.2020. 321–326.